

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
QARSHI MUHANDISLIK - IQTISODIYOT INSTITUTI



## DAVLAT BYUDJETI

### O'QUV DASTURI

- Bilim sohasi:** 400 000 – Biznes, boshqaruv va huquq  
**Ta'lim sohasi:** 410 000 – Biznes va boshqaruv  
**Ta'lim yo'nalishi:** 60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar

Fan/modul kodi PUBP 381	O'quv yili 2024-2025	Semestr 5-6	ECTS - Kreditlar 8	
Fan/modul turi Majbutiy fani	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Davlat budjeti (6 semestr uchun)	120	120	240
2.	<b>Fanning mazmuni</b>			
	<p>2.1. Fanning maqsadi – kelgusida respublikamizda yuqori malakali iqtisodchi – mutaxassislar bo‘lib yetishadigan talabalar uchun talabalarga davlat budjeti - iqtisodiy kategoriya sifatida, Davlat budjetining moliyaviy reja sifatidagi belgilari, Davlat budjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va funksiyalari, Yalpi ichki mahsulotni qayta taqsimlash, Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va rag‘batlantirish, har tomonlama hamda chuqur o‘rganish asosida Budjet sohasidagi muassasalarni moliyaviy ta'minlash va davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirish usullari bo‘yicha ko‘nikma va malakalar shakllantirishdir.</p> <p>Fanning vazifasi - talabalarga O‘zbekiston Respublikasi davlat moliyasi va uning tarixi haqida nazariy bilimlar berish, ularda davlatning bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida amalga oshiradigan moliya va budjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari, soliqlarning ahamiyati, vazifalari va funktsiyalarini, soliqlarning turlari, korxonalar moliyaviy holatini baholashni; moliyaviy nazorat va rejalashtirish turlarini, soliq mexanizmini; soliqlarni hisoblash va budjetga undirish tartiblarini, budjet tizimini boshqarish, budjet ijrosini tashkil etishni va ularni chuqur o‘rganishdan iboratdir.</p> <p><b>2.2. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)</b></p> <p>2.2.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p><b>1-mavzu. “Davlat budjeti” faniniga kirish</b></p> <p>Fanning predmeti, asosiy mazmuni, tarkibiy tuzilishi, maqsadi va vazifalari. Fanni o‘rganishning zarurligi. “Davlat budjeti” fanining iqtisodiy fanlar tizimidagi o‘rni va ahamiyati. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi. Fanning oldida turgan muammolar. Fan sohasidagi ilmiy maktablar, ularning namoyandalari va ilmiy qarashlari. Fanning rivojlanishidagi asosiy tendensiyalar.</p> <p><b>2-mavzu. Davlat budjetining mohiyati va ahamiyati</b></p> <p>Davlat budjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyati. Davlat budjeti – iqtisodiy kategoriya sifatida. Davlat budjeti orqali yalpi ichki mahsulot va milliy daromad qiymatining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi. Moddiy ma'noda davlat budjetining mohiyati. Davlat budjetining davlat ixtiëridagi markazlashgan pul fondi ekanligi. Davlat</p>			

budgeti – huquqiy kategoriya sifatida. Davlat budgetining funksiyalari, ularning davlatning funksiyalari bilan bog‘liqligi. Davlat budgetining umumiy moliyaviy munosabatlar tarkibidagi o‘rni va ahamiyati. Budget munosabatlarining ko‘pqirraliligi va ko‘p pog‘onaliligi. Davlat budgetining mamlakat moliya tizimining boshqa bo‘g‘inlari bilan o‘zaro munosabatlari.

### **3-mavzu. Budget tuzilishi va budget tizimi**

Budget tuzilishi va budget tizimi to‘g‘risida tushuncha. Jahonda mavjud budget qurilishi modellari, ularning xususiyatlari. O‘zbekiston Respublikasida budget tizimi va uning asosiy prinsiplari. Budget tizimi budjetlari to‘g‘risida tushuncha. Turli darajadagi budjetlar o‘rtasida daromad va xarajatlarni taqsimlash asoslari. Budget tuzilishi va budget tizimi amal qilishning qonuniy-huquqiy asoslari. Budget huquqi, uning ob'ektlari, sub'ektlari, budget huquqi me'èrlari. Respublika (markaziy) va mahalliy hukumat organlarining budget huquqlari. Mahalliy hukumat organlari budget huquqlarining kengayishi.

### **4-mavzu. Davlat budgetining huquqiy asoslari**

Davlat budgeti qonunchiligi va budget huquqi. Budget munosabatlarini tartibga soluvchi qonuniy-huquqiy hujjatlar. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi – budget munosabatlarining huquqiy asosi sifatida. O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksi, uning mazmuni, tarkibi, budget munosabatlarini tartibga solishdagi ahamiyati. Soliq kodeksi, uning davlat budgetini shakllantirishdagi ahamiyati. Mahalliy hokimiyat organlarining mahalliy budjetlarni boshqarishdagi huquq va majburiyatlari. Davlat budgeti qonunchiligidagi so‘nggi o‘zgarishlar. Davlat moliya tizimidagi islohotlar sharoitida davlat budgeti huquqiy asoslarining mustahkamlanishi.

### **5-mavzu. Davlatning budget-soliq siyosati**

Davlat budgeti – davlat iqtisodiy sièsatining quroli sifatida. Budget-soliq sièsatining taktikasi va strategiyasi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi budget-soliq sièsatining rivojlanish bosqichlari, maqsad va vazifalari. Mamlakatni moliyaviy sog‘lomlashtirish, iqtisodiètning rivojlanishini rag‘batlantirish, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash hamda mamlakatni madaniy jihatdan yuksaltirishga qaratilgan budget sièsatining asosiy yo‘nalishlari. Davlatning budget tizimi budjetlari daromadlari, xarajatlari, budget taqchilligini boshqarish va tartibga solishdagi sièsatining o‘ziga xos xususiyatlari. Zamonaviy soliq sièsati va uning dastak-vositalari. Davlatning budget-soliq sièsati uyg‘unligini ta‘minlash. Budget-soliq sièsatining zamonaviy dolzarb muammolari.

### **6-mavzu. Davlat budgetini boshqarish**

Davlat budgetini boshqarish to‘g‘risida tushuncha. Boshqarish ob'ektlari va sub'ektlari, ularning guruhlanishi, asosiy vazifalari. Markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat budgetini boshqarish sohasidagi vakolatlari. Markaziy va mahalliy ijroiya hokimiyati

organlarining davlat budjetini boshqarishdagi ishtiroki. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining budjet sohasini boshqarishdagi vakolatlari. O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligi, uning budjet mablag'larini boshqarishdagi ahamiyati. Xorijiy davlatlarda davlat budjetini boshqarish, uning ob'ektlari va sub'ektlari, boshqarish organlarining vakolatlari.

#### **7-mavzu. Budjetlararo munosabatlar**

Budjetlararo munosabatlar to'g'risida tushuncha. Budjetlar darajalari o'rtasida daromadlar va xarajatlarning taqsimlanishi. Tartibga soluvchi daromadlar, ularning budjet tizimi budjetlarini tartibga solishdagi ahamiyati. Budjetlararo munosabatlarni tashkil etish va boshqarishda mahalliy budjetlar rioya qilishi lozim bo'lgan cheklanishlar. Budjetlararo munosabatlarning zarurligi. Budjetlararo transfertlarning shakllari: subvensiyalar; o'tkazib beriladigan daromadlar; dotasiyalar; budjet ssudasi; o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mablag'lar; maqsadli ijtimoiy transfertlar. Budjetlararo transfertlarni o'tkazish tartibi. Budjet tizimi budjetlari daromadlarini tartibga solishda budjetlararo munosabatlarning ahamiyati. Budjet ssudasi shaklidagi budjetlararo transfert. Aylanma kassa mablag'lari. Budjetlararo munosabatlarning jahon tajribalari.

#### **8-mavzu. Budjet tasnifi**

Budjet tasnifining mohiyati, zarurligi va ahamiyati. Budjet tasnifining asosiy prinsiplari. Budjet tasnifining tarkibi. Budjet tizimi budjetlari daromadlarining tasnifi va uning tarkibiy qismlari. Budjet tizimi budjetlari xarajatlarining tasnifi va uning tarkibiy qismlari. Budjet tizimi budjetlarining iqtisodiy belgilar bo'yicha xarajatlari. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro qilish, shuningdek ularning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayèrlashda budjet tasnifidan foydalanish. Davlat budjeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifi. Budjet tizimidagi islohotlar doirasida budjet tasnifining takomillashuvi. O'zbekiston Respublikasi budjet tasnifining xorijiy davlatlar budjet tasniflari bilan qièslanishi. Davlat budjetining daromadlari va xarajatlari tizimi

#### **9-mavzu. Davlat budjeti daromadlari tizimi**

Davlat budjeti daromadlarining iqtisodiy mazmuni va manbalari. Davlat budjeti daromadlarining mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot va milliy daromad qiymatining qayta taqsimlanishi jaraènida shakllanishi. Davlat budjetiga daromadlarni jalb qilishning ichki va tashqi manbalari. Davlat budjeti daromadlari tarkibi, tuzilishi va dinamikasi. Budjet daromadlarining shakllanishida soliqlarning ahamiyati. Soliqlarning o'ziga xos belgilari. Davlat budjeti daromadlarining shakllanishida xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan va aholidan undiriladigan daromadlarning tutgan o'rni. Soliqlarni guruhlash mezonlari. O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari daromadlarining shakllantirilishiga

ko'ra soliqlarning umumdavlat soliqlari va mahalliy soliqlarga bo'linishi. Davlat budjetining soliqsiz daromadlari. Davlat budjetining daromad bazalarini mustahkamlashning bugungi kundagi muammolari.

### **10-mavzu. Davlat budjeti xarajatlari tizimi**

Davlat budjeti xarajatlarining davlatning funksiyalari bilan bog'liqligi. Davlat budjeti xarajatlarining iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmun-mohiyati. Davlat budjeti xarajatlarining iqtisodiy mazmuniga ko'ra guruhlanishi: joriy xarajatlar, kapital xarajatlar. Davlat budjeti xarajatlarining funksional tayinlanishiga ko'ra guruhlanishi. Davlat budjeti xarajatlarining tarkibi va tuzilishi. Davlat budjetining iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlari. Iqtisodiy islohotlarning bugungi bosqichida iqtisodiy xarajatlari tarkibining o'zgarishi. Davlat budjetining ijtimoiy sohalarni saqlash va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari. Davlat budjetining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini saqlash xarajatlari. Davlat budjetining mamlakat mudofaa tizimini saqlash va rivojlantirish bilan bog'liq xarajatlari.

### **11-mavzu. Davlat budjetining holati**

Davlat budjetining umumiy holati. Davlat budjetining balanslilik, profisit va taqchillik holatlari. Davlat budjeti taqchilligi tushunchasi, uning shakllari, davlat budjeti taqchilligini keltirib chiqaruvchi omillar. Davlat budjeti taqchilligini tartibga solish va boshqarish. Davlat budjeti taqchilligini qoplash manbalari, ularning guruhlanishi, taqchillikni qoplashning ichki va tashqi, inflyasion va noinflyasion manbalari, ularning xususiyatlari. Davlat budjeti taqchilligi to'g'risidagi zamonaviy konsepsiyalar, ularning mazmuni, xususiyatlari va ahamiyati. Xorijiy davlatlarda budjet taqchilligi va u bilan bog'liq muammolar. Xorijiy davlatlarda budjet taqchilligini boshqarish.

### **12-mavzu. Budjet jarayoni**

Budjet jarayoni to'g'risida tushuncha. Budjet jaraeni bosqichlari: budjet loyihasini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, budjet ijrosini nazorat qilish, budjet ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayèrlash va tasdiqlash. Budjet jaraeni ishtirokchilari, ularning vakolatlari va vazifalari. Tasdiqlangan budjetning budjet mablag'larini oluvchilarga yetkazilishi. Budjetni ijro etish, uning vazifalari, budjet ijrosini ta'minlovchi organlar. Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida tushuncha, uning xususiyatlari. Davlat budjetining g'azna ijrosini tashkil qilish. G'azna ijrosining huquqiy asoslari. G'aznachilikning elementlari. G'azna ijrosida budjet mablag'larining ularni oluvchilarga yetkazilishi. Budjetning g'azna ijrosini amalga oshiruvchi organlar, ularning asosiy vazifalari. Budjet ijrosi yuzasidan hisobotlar tuzish, ularni ko'rib chiqish va tasdiqlash. Budjet jaraeni bosqichlarini nazorat qilish, nazoratning asosiy vazifalari. Xorijiy davlatlarda budjet jaraenini tashkil qilishning xususiyatlari. Xorijiy davlatlarda budjet jarayoni: ishtirokchilari, ularning vakolatlari.

### **13-mavzu. Budget tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish**

Budget tashkilotlarini smeta asosida moliyalashtirishning mazmuni, umumiy tamoyillari. Xarajatlar smetasi – budget tashkilotlari moliyaviy rejasi sifatida. Smeta, uning elementlari. Smetalarning turlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari. Smeta xarajatlarining tarkibi, xarajat guruhlar va moddalari, ularni hisoblash. Budget me'èrlari, ulardan smetalarni tuzishda foydalanish. Budget tashkilotlari xarajatlarini aniqlashda xarajatlarni me'èrlashtirish amaliyotiga o'tish masalalari. Smetalarni tuzish, tekshirish, tasdiqlash, ro'yxatdan o'tkazish va moliyalashtirish tartibi. Smeta asosida moliyalashtirish yuzasidan hisobot. Budget tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishda budgetdan tashqari mablag'larni jalb qilish masalalari. Budget tizimi budgetlarining g'azna ijrosi sharoitida budjettashkilotlari xarajatlari to'lovini amalga oshirish.

### **14-mavzu. Davlat budgetining ta'lim tizimi xarajatlari**

Uzluksiz ta'lim tizimining shakllanishi, uning asosiy bosqichlari. Kadrlar tayèrlash Milliy dasturi va "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishda davlat budgetining ahamiyati. Ta'lim tizimi xarajatlarining respublika budjeti va mahalliy budjetlardan amalga oshirilishi. Maktabgacha ta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish. Umumta'lim maktablari xarajatlarini rejalashtirish va budgetdan moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Umumta'lim muassasalari xodimlari ish haqini hisoblash, rejalashtirish va moliyalashtirish. Boshqa tipdagi umumiy o'rta ta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirishning o'ziga xos jihatlari. Ta'limni rivojlantirish davlat dasturlarini moliyaviy ta'minlashda davlat budjeti va boshqa manbalarning ahamiyati. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirishning xususiyatlari, ular moliyaviy ta'minlanishini yaxshilash masalalari. Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Oliy ta'lim muassasalari daromadlari va xarajatlari tarkibi va tuzilishi. Oliy ta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirish tartibi. Oliy ta'lim muassasalarining budgetdan tashqari mablag'lari manbalari va ishlatish yo'nalishlari. Uzluksiz ta'lim tizimining boshqa tipdagi muassasalarini budgetdan moliyalashtirishning o'ziga xos jihatlari.

### **15-mavzu. Davlat budgetining sog'liqni saqlash xarajatlari**

Sog'liqni saqlash tizimi xarajatlarini moliyalashtirish manbalari. Sog'liqni saqlash sohasidagi davlatning majburiyatlari. Sog'liqni saqlash tizimi muassasalarini saqlash va rivojlantirishda davlat budgetining ahamiyati. Davlat sog'liqni saqlash muassasalarining tarkibi, ular xarajatlarini rejalashtirish va budgetdan moliyalashtirishning xususiyatlari. Xarajatlarni rejalashtirishdagi asosiy ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi. Turg'un davolash muassasasi xarajatlar smetasini tuzish. Tibbiy xodimlar ish haqini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari. Ambulatoriya-poliklinika, boshqa birlamchi tibbiy muassasalari xarajatlar

smetasini tuzish. Sog'liqni saqlash muassasalarining jamlanma smetasini tuzishning xususiyatlari. Tibbiyot sohasidagi islohotlarni moliyaviy ta'minlash masalalari. Tibbiyot sug'urtasini joriy qilishning tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy masalalari.

#### **16-mavzu. Davlat budjetining madaniyat va sport xarajatlari**

Davlat budjeti xarajatlari tarkibida madaniyat xarajatlarining tutgan o'rnini va jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishidagi ahamiyati. Davlat madaniyat muassasalarining guruhlanishi, ular xarajatlarini rejalashtirish va budjetdan moliyalashtirish tartibi. Madaniyat uylari, klublar, kutubxonalar va boshqa madaniyat muassasalari xarajatlarini hisoblash tartibi. Madaniyat sohasidagi markazlashtirilgan tadbirlarni moliyalashtirish. San'at, televidenie, radio, matbuot xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Madaniyat xarajatlarini moliyalashtirishda respublika budjeti va mahalliy budjetlarning ishtiroki. Madaniyat sohasini moliyaviy ta'minlashning bozor mexanizmi, uning takomillashuvi. Davlat budjeti xarajatlari tarkibida sport xarajatlarining tutgan o'rnini va ahamiyati. Davlat sport tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirish va budjetdan moliyalashtirish tartibi. Sport sohasidagi markazlashtirilgan tadbirlarni moliyalashtirish. Sport xarajatlarini moliyalashtirishda respublika budjeti va mahalliy budjetlarning ishtiroki.

**17-mavzu. Davlat budjetining ijtimoiy himoya xarajatlari**  
Mamlakatda ijtimoiy ta'minot tizimi va tadbirlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash manbalari. Davlat budjetining ijtimoiy ta'minot xarajatlari tarkibi. Ijtimoiy ta'minot tizimiga qarashli muassasa va tashkilotlar xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish. Mehr-muruvvat uylari, mehr-sahovat uylari xarajatlarini rejalashtirish va budjetdan moliyalashtirishning xususiyatlari. Ijtimoiy ta'minot tizimidagi uyda ijtimoiy erdam ko'rsatish xizmatlari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.

#### **18-mavzu. Davlat budjetining iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlari**

Davlat budjetining iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlari. Davlat budjetining iqtisodiy xarajatlari. Iqtisodiy xarajatlarining asosan qishloq va suv xo'jaligi tarmoqlarida faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilishi. Fermer xo'jaliklarining barqaror faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash. Markazlashgan investisiyalarni moliyalashtirish xarajatlari. Davlat budjetining davlat investision dasturlarini qo'shma moliyalashtirishdagi o'rnini va ahamiyati. Zamonaviy sharoitda davlat budjetining iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlari tarkibi va tuzilishining o'zgarishi.

#### **19-mavzu. Davlat budjetining davlat hokimiyati, boshqaruvi, sud, prokuratura organlarini saqlash xarajatlari**

Davlat budjetining boshqaruv xarajatlari tarkibi va tuzilishi. Davlat boshqaruvi, sud va prokuratura organlari xarajatlarini

rejalashtirish va budjetdan moliyalashtirish. Boshqaruv xarajatlarining respublika budjeti va mahalliy budjetlar tomonidan moliyalashtirilishi. Davlat budjetining boshqaruv, sud, prokuratura organlarini saqlash xarajatlaridan samarali foydalanish. Boshqaruv xarajatlarini qisqartirish masalalari.

## **20-mavzu. Davlat budjetining boshqa xarajatlari**

Davlat budjetining boshqa xarajatlari tarkibi. Budjetning xarajatlar tasnifiga muvofiq boshqa xarajatlar turlari. Siësiy partiyalarga ularning ustavida belgilangan faoliyatini moliyalashtirish uchun davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar. O'zbekiston Respublikasi ishtirokchi bo'lgan xalqaro tashkilotlarga a'zolik badallarini to'lash va ularni moliyalashtirishda ishtirok etish xarajatlari. Davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish va O'zbekiston Respublikasining kafolatlangan majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq xarajatlar. Davlat buyurtmasi bo'yicha statistik ishlariga haq to'lash. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining saylovlar va referendumlarga tayërgarlik ko'rish hamda ularni o'tkazish bo'yicha xarajatlari. Xo'jalik jamiyatlaridagi davlat ulushini boshqarish bo'yicha davlat ishonchli vakillarining xizmatlariga haq to'lash. Davlat zaxiralari va strategik zaxiralarni vujudga keltirish va saqlash bilan bog'liq xarajatlar. Davlat mukofotlarini to'lash, ularning respublika budjetidan moliyalashtirilishi. Mudofaaga, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashga, bojxona organlariga ajratiladigan mablag'lar, shu jumladan, harbiy xizmatni, ichki ishlar organlarida, bojxona organlarida xizmatni o'tagan shaxslar hamda ularning oilalariga pensiya va nafaqalar uchun xarajatlar, qonun hujjatlariga muvofiq faoliyati O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan moliyalashtiriladigan muassasalar, tashkilotlar va idoralarga ajratiladigan mablag'lar. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar va dotasiyalar, davlat maqsadli jamg'armalariga budjet ssudalari va dotasiyalar, yuridik shaxslarga budjet ssudalari va kredit liniyalari hamda belgilangan tartibda ajratilgan chet davlatlariga kreditlar.

## **21-mavzu. Budjet nazoratini tashkil qilish**

Budjet nazoratining mazmuni, prinsiplari va ahamiyati. Budjet nazoratining respublika darajasida va mahalliy darajada amalga oshirilishi. Budjet nazoratining turlari: taftish; tekshirish; o'rganish. Budjet nazoratining shakllari: dastlabki, joriy, so'nggi nazorat. Budjet nazoratining usillari: ëppasiga nazorat, tanlanma nazorat, kompleks nazorat, mavzuli nazorat, muqobil nazorat. Budjet nazorati organlari, ularning guruhlanishi. Budjet nazoratini amalga oshiruvchi organlarning vazifalari, huquq va majburiyatlari. G'aznachilik bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladigan davlat moliyaviy nazorati. Moliya vazirligi Davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat ishlari.

## **22-mavzu. Xorijiy mamlakatlar budjet tizimi va budjet jarayoni**



Xorijiy mamlakatlarda davlat budjeti va budjet tizimining o'ziga xos xususiyatlari. Xorijiy davlatlarda budjet qurilishi modellari. Federal va munisipal hukumatlarning budjet borasidagi huquq va majburiyatlari. Xorijiy mamlakatlarda budjet jaraeni tashkil etish xususiyatlari. Budjet jaraeni ishtirokchilari, ularning budjet huquqlari. Qonun chiqaruvchi va ijroiya organlarning budjet borasidagi vakolatlari. Xorijiy davlatlarda davlat budjeti taqchilligi masalalari. Taqchillikni boshqarish usul va vositalari. Xorijiy davlatlarda davlat qarzi, uni boshqarish masalalari. Xorijiy davlatlar iqtisodieti va davlat budjetining holati

### **2.3. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- 1.. "Davlat budjeti" faniniga kirish
2. Davlat budjetining mohiyati va ahamiyati
3. Budjet tuzilishi va budjet tizimi
4. Davlat budjetining huquqiy asoslari
5. Davlatning budjet-soliq siëati
6. Davlat budjetini boshqarish
7. Budjetlararo munosabatlar
8. Budjet tasnifi
9. Davlat budjeti daromadlari tizimi
10. Davlat budjeti xarajatlari tizimi
11. Davlat budjetining holati
12. Budjet jarayoni
- 13 Budjet tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish
- 14-mavzu. Davlat budjetining ta'lim tizimi xarajatlari
- 15-mavzu. Davlat budjetining sog'liqni saqlash xarajatlari
16. Davlat budjetining madaniyat va sport xarajatlari
17. Davlat budjetining ijtimoiy himoya xarajatlari
18. Davlat budjetining iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlari
19. Davlat budjetining davlat hokimiyati, boshqaruvi, sud, prokuratura organlarini saqlash xarajatlari
20. Davlat budjetining boshqa xarajatlari
21. Budjet nazoratini tashkil qilish
22. Xorijiy mamlakatlar budjet tizimi va budjet jarayoni

### **2.4. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. "Davlat budjeti" faniniga kirish
2. Davlat budjetining mohiyati va ahamiyati
3. Budjet tuzilishi va budjet tizimi
4. Davlat budjetining huquqiy asoslari
5. Davlatning budjet-soliq siëati

6. Davlat budjetini boshqarish
7. Budjetlararo munosabatlar
8. Budjet tasnifi
9. Davlat budjeti daromadlari tizimi
10. Davlat budjeti xarajatlari tizimi
11. Davlat budjetining holati
12. Budjet jaraeni
13. Budjet tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish
14. Davlat budjetining ta'lim tizimi xarajatlari
15. Davlat budjetining sog'liqni saqlash xarajatlari
16. Davlat budjetining madaniyat va sport xarajatlari
17. Davlat budjetining ijtimoiy himoya xarajatlari
18. Davlat budjetining iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlari
19. Davlat budjetining davlat hokimiyati, boshqaruvi, sud, prokuratura organlarini saqlash xarajatlari
20. Davlat budjetining boshqa xarajatlari
21. Budjet nazoratini tashkil qilish
22. Xorijiy mamlakatlar budjet tizimi va budjet jarayoni

### 3.1. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

#### Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

-Budjet tizimi va uning asosiy bo'g'inlari haqida; moliya siyosatining asosiy yo'nalishlari; korxonalar moliyasi va ularni boshqarish; soliq tizimi va soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlari; soliqlarning korxonalar iqtisodiyotiga ta'siri; soliq mexanizmi va soliqlarning byudjet daromadlaridagi ahamiyati; byudjet xarajatlarining turlari va yo'nalishlari haqida tasavvurga ega bo'lishi

3. - Moliya va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari, soliqlarning ahamiyati, vazifalari va funktsiyalarini, soliqlarning turlari, korxonalar moliyaviy holatini baholashni; moliyaviy nazorat va rejalashtirish turlarini, soliq mexanizmini; soliqlarni hisoblash va byudjetga undirish tartiblarini, byudjet tizimini boshqarish, byudjet ijrosini tashkil etish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

- Davlat budjetini boshqarish tushunchasi; moliyaviy va soliq nazoratini amalga oshirish; moliyaviy rejalashtirish; moliyaviy tahlil qilish; soliqlarni hisoblash va byudjetga undirish; moliyaviy resurslarni jalb qilish; byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish malakalariga ega bo'lishi kerak. □

#### 4.1. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

4.
  - ma'ruzalar;
  - amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;
  - interfaol keys-stadilar;
  - blis-so'rov;
  - guruhlarda ishlash;
  - taqdimotlarni qilish;

- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

### 5.1. Kreditlarni olish uchun talablar:

5. Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

#### 6.1. Asosiy adabiyotlar

1. Malikov T. Byudjet-soliq siyosati. O'quv qo'llanma. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019 y. – 376bet.
  2. G'aybullayev O., O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. – T.: “Baktriapress”, 2016. – 168b.
  3. Nurmuxamedova B., Kabirova N. “Moliya”, O'quv qo'llanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017. 224b.
  4. Nurmuxamedova B. I. Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2018. – 576b.
  5. Po'latov D. X., Nurmuxamedova B. I. G'aznachilik. Darslik. – T.: “Sano-standart”, 2014. – 272b.
  6. Mehmonov S., Karimova Z., Tursunova A. Byudjet tizimi. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2018 y. – 544bet.
  7. Жиянова Н., Ташматова Р. Бюджетно-налоговая политика: Учебное пособие. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2019 г. – 216 стр.
- Qo'shimcha adabiyotlar
1. Mirziyoev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
  2. Mirziyoev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
  3. Mirziyoev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
  4. Mirziyoev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
  5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
  6. Tashmuxamedova D. Byudjet g'azna ijrosi. O'quv qo'llanma. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019 y. – 440bet.
  7. Tashmuxamedova D. G'aznachilik asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018 y. – 304bet.
  8. Fuqarolar uchun byudjet/O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. – Toshkent: Baqtriya press, 2018. – 104b.
  9. Ракитина И., Берёзина Н. Государственные и муниципальные

	<p>финансы. Учебники практикум М:Юрайт-М,2017.–392 стр.</p> <p>10.Юлдашева Н. Местные бюджеты: Учебно-методическое пособие. – Т.:“IQTISOD-MOLIYA”,2018.– 364г.</p> <p>6.3. Axborot manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a> - O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.</li> <li>2. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a>- <u>O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.</u></li> <li>3. <a href="http://ima.uz">http://ima.uz</a> - <u>O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi</u></li> <li>4. <a href="https://mininnovation.uz">https://mininnovation.uz</a> - O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi.</li> <li>5. <a href="http://www.mf.uz">www.mf.uz</a> - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.</li> <li>6. <a href="http://www.sb.uz">www.sb.uz</a> - O‘zbekiston Respublika Markaziy banki.</li> <li>7. <a href="http://www.soliq.uz">www.soliq.uz</a> - O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi.</li> <li>8. <a href="http://www.stat.uz">www.stat.uz</a> - O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.</li> </ol>
7.	Fan dasturi Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti Kengashida (2024 yil “__” __ dagi __-sonli bayonnomasida) muhokama etilgan va o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.
8.	<b>Fan/modul uchun mas’ullar:</b> Z.I.Ro`ziyev – QarMII, “Moliya” kafedrasi dotsenti
9.	<b>Taqrizchilar:</b> I.E.Tursunov – “Biznes va innovatsion menejment” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari nomzodi. Sh.Sh.Fayziyeva -“Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi dosenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi.